

PROBATSIIYA XIZMATI NAZORATI OSTIDAGI SHAXSLARGA IJTIMOIIY-HUQUQIIY VA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHDA SOHAVIY XIZMATLAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Abdug'afforov Akmal Abdurasulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI:	<i>Maqolada, O'zbekiston Respublikasida</i>
<i>Received: 09.12.2025</i>	<i>probatsiya xizmati nazorati ostidagi</i>
<i>Revised: 10.12.2025</i>	<i>shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik</i>
<i>Accepted: 11.12.2025</i>	<i>yordam ko'rsatishda ichki ishlar organlari,</i>
KALIT SO'ZLAR:	<i>mahalla, bandlik xizmatlari, sog'liqni saqlash</i>
<i>probatsiya xizmati,</i>	<i>tizimi va nodavlat tashkilotlar bilan</i>
<i>hamkorlik, ijtimoiy</i>	<i>hamkorlikning huquqiy asoslari,</i>
<i>reabilitatsiya, psixologik</i>	<i>hamkorlikda amalga oshirish mexanizmi va</i>
<i>yordam, ijtimoiy-psixologik</i>	<i>natijalari tahlil qilinadi.</i>
<i>portret, ozodlikdan mahrum</i>	
<i>qilish bilan bog'liq bo'lmagan</i>	
<i>jazolar.</i>	

O'zbekiston Respublikasida jinoyat-ijroiya siyosatining insonparvarlashuvi jarayonida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari kengayib bormoqda. 2019-yilda Ichki ishlar vazirligi huzurida Probatsiya xizmati tashkil etildi. Ushbu xizmatning asosiy vazifasi – shartli hukm qilingan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan va muddatidan oldin shartli ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish hamda ularning jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoniga muvofiq IIV Jamoat xavfsizligi departamentining asosiy vazifalaridan biri bu ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etishdir. Shuningdek ushbu farmonda probatsiya inspektorlarining faoliyati hududiy profilaktika inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etilishi;

probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagilarning shaxsini o'rganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklanishi nazarda tutildi⁶.

O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, Probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularning ta'lim olishiga, kasb-hunar o'rganishiga va ishga joylashishiga ko'maklashish vositasida jamiyatning to'la huquqli a'zosiga aylanishiga qaratilgan faoliyat ijtimoiy moslashtirishdir.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llaniladi⁷.

Shaxs probatsiya hisobiga qo'yilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida tuman (shahar) probatsiya bo'linmasi xodimi va mutaxassis-psixolog tomonidan probatsiya nazoratidagi shaxsning o'ziga xos alohida belgilarini, ruhiy xususiyatlarini hamda xulq-atvorini baholash natijalari asosida uning individual ijtimoiy-psixologik qiyofasi tuziladi. Probatsiya nazoratidagi shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasida shaxsga doir ma'lumotlar, shu jumladan shaxsga doir maxsus ma'lumotlar aks ettiriladi.

Probatsiya nazoratidagi shaxs mutaxassis-psixolog tomonidan har uch oyda bir marta suhbatdan o'tkazilib, suhbat natijalariga ko'ra probatsiya nazoratidagi shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Probatsiya nazoratidagi shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun tuman (shahar) probatsiya bo'linmasi xodimi va mutaxassis-psixolog shaxsan javobgar bo'ladi⁸.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022 yil 19 fevraldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash departamenti Probatsiya xizmati faoliyatiga yangi ish uslublarini tatbiq etish to'g'risida"gi buyrug'i asosida, Probatsiya xizmatining nazoratidagi shaxslar bilan ishlashda asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning belgilangan cheklovlarga rioya qilishlari, shuningdek ularga yuklangan majburiyatlarni bajarishlari ustidan nazoratni amalga oshirish;
- probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, shu jumladan, ularga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni ta'lim olishga, kasb-hunar o'rganishga va ishga joylashishga ko'maklashishga qaratilgan chora-tadbirlarni, individual ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida amalga oshirishini nazorat qilish;

⁶ Umaraliev D.N. Znachenie pravovogo polojeniya lis, naxodyayixsya pod probatsionnym kontrolem, i vozlojennых na nix obyazannostey pri ispolnenii nakazaniy, ne svyazannyx s lisheniem svobody//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Probatsiya to'g'risida", O'RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Probatsiya to'g'risida", O'RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>

– probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan tarbiyaviy, huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishini ta'minlash;

– probatsiya nazoratidagi shaxslarning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda o'rganish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etishining barvaqt oldini olish ishlarini tashkil etish;

– probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan asl omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ijrosini tashkil etish⁹.

Probatsiya xizmatining nazoratdagi shaxslar bilan ishlashdagi asosiy faoliyatlaridan biri nazoratdagi shaxslarni ahloqan tuzatish va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish hisoblanadi. Buning amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan taqdirdagina oxirgi zarurat sifatida uning jazo turini boshqa og'irroq jazo turiga almashtirish chorasini ko'radi.

Probatsiya xizmatining asosiy vazifalaridan biri ham – ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari hamda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan o'zaro hamkorlikda samarali tashkil etish hisoblanadi.

Probatsiya faoliyati sohasidagi hamkorlik – ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, o'zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya'ni boshqaruvning bir-biriga bo'ysunmagan alohida ishtirokchilari o'z harakatlarini o'zaro kelishib bajarishadi.

Probatsiya xizmatining hududiy bo'linmasi xodimi huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmasi (katta) inspektori bilan hamkorlikda probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olish borasida hamkorlik qiladi"-deb belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022 yil 19 fevraldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash departamenti Probatsiya xizmati faoliyatiga yangi ish uslublarini tatbiq etish to'g'risida"gi buyrug'ining b-bobi "Probatsiya xizmati hududiy bo'linmalari inspektorlarining faoliyatini huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmalari profilaktika (katta) inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etish"-deb nomlanib, unda "Probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, ular tomonidan yangi jinoyat sodir etilishini oldini olishda probatsiya xizmati hududiy bo'linmalari

⁹ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2022 йил 19 февралдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш департаменти Пробаация хизмати фаолиятига янги иш услубларини татбиқ этиш тўғрисида"ги буйруғи

=====

huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining hududiy bo'linmalari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikni tashkil etadi¹⁰”-deb belgilangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, probatsiya nazorati ostidagi shaxslarga nisbatan sud tomonidan yuklatilgan majburiyat va cheklovlarga amal qilinishini, jazo ijrosi muqarrarligini ta'minlashda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikning o'rni beqiyosdir hamda jazo samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Ichki ishlar organlari to'g'risida”, O'RQ – 407, 16.09.2016-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to'g'risida”, O'RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”, O'RQ – 681, 20.04.2021-yil
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i – “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida” – IIV – 403, 19.07.2025
8. D.N.Umaraliyeva. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarning xulq- atvori ustidan ta'sirchan nazorat olib borishda probatsiya xizmatining o'rni. Siyosatshunoslik, huquq va halqaro munosabatlar jurnali. Toshkent 2023. Vol. 2 No. 2 (2023). ISSN -2181-2594 (http://t.me/ScienceBox_official)
9. Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробатсионным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы//
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

¹⁰Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2022 йил 19 февралдаги Жамоат хавфсизлигини таъминлаш департаменти Пробация хизмати фаолиятига янги иш услубларини татбиқ этиш тўғрисида”ги буйруғи